

QARAMA-QARSHILIK IFODALOVCHI STILISTIK FIGURALAR YUZAGA KELISH JARAYONIGA TARIXIY NAZAR

<https://doi.org/10.70728/phil.v05.i02.040>

Axmadjonov Avazbek Akmaljon o'g'li
aaxmadjonov77@gmail.com
Qo'qon universiteti, Qo'qon Davlat Universiteti

Annotatsiya: Ushbu ilmiy tadqiqot obyekti sifatida qarama-qarshilik ifodalovchi stilistik figuralar tanlab olingan bo'lib, ularning shakllanishi, tilshunoslik, falsafa va ijtimoiy mavzularda qo'llanilishi, turli xil davrlarda lingvistik jarayonda qo'llanilishi hodisalari o'rganilgan. Ushbu figuralar ichidan antiteza va xiazm hodisalari alohida tahlil qilinadi va antik davr, uyg'onish davri, zamonaviy adabiyot namunalarida kelgan figuralardan foydalanilgan. Mavzuga tarixiy yondashish orqali ushbu stilistik figuralarning yuzaga kelishi, turli shaklga ega figuralar o'rtasidagi o'xshashlik va farqlari ustida izlanish olib borilgan. Kontrast ifodalovchi bu figuralar inson tafakkuriga aqliy va hissiy ta'sir o'tkazishi yana bir bor aniqlanib, ular orqali so'zlovchi o'z fikrlarini poetik va emotsional tarzda yetkazib berishi ta'kidlab o'tilgan. Tadqiqotning asosiy maqsadi kontrast ifodalovchi stilistik figuralarning paydo bo'lishi aynan qaysi davr to'g'ri kelishi, qadimdan ushbu figuralar qay maqsadlarda va qaysi sohalarda yorqin misollar yordamida foydalanib kelinganligini tahlil qilish etib olingan.

Kalit so'zlar: stilistika, antik davr, xiazm, antiteza, oksimoron, kontrast, lingvistika, ritorik

HISTORICAL PERSPECTIVE ON THE EMERGENCE OF CONTRASTIVE STYLISTIC FIGURES

Akhmadjonov Avazbek Akmaljon oglu
aaxmadjonov77@gmail.com
Kokand University, Kokand State University

Abstract: This scientific study takes contrastive stylistic figures as its object of inquiry and examines their formation, as well as their use in linguistics, philosophy, and social discourse, with particular attention to their functioning in linguistic processes across different historical periods. Among these figures, antithesis and chiasmus are analyzed in detail, drawing on examples from Antiquity, the Renaissance, and modern literary texts. Through a historical approach, the study investigates the

emergence of these stylistic figures and explores the similarities and differences among figures with varying structural forms. It is further confirmed that such contrastive figures exert both cognitive and emotional influence on human thought, enabling speakers and writers to convey their ideas in a poetic and emotionally expressive manner. The main aim of the research is to determine the historical period in which contrastive stylistic figures first emerged and to analyze, through vivid examples, the purposes and domains in which these figures have been used from ancient times to the present.

Keywords: stylistics, contrast, chiasmus, antithesis, oxymoron, antic period, linguistics, rhetoric

Stilistika sohasida qarama-qarshilik ifodalovchi figuralar antik davrlardan buyon Aristotel, Sitseron, Gomer, Plato, Geraklit asarlarida keng ravishda murakkab g'oyalarni izohlash, bildirilayotgan nuqtai nazarni ishonchliroq ko'rinishi, inson ongiga hissiy ta'sir o'tkazish, ahloqiy va intellektual nizolarni hal qilishda foydalanilgan. Masalan, Sofoklning "Antigone"¹ asarida asosiy qahramonning ilohiy qonunga sodiqligi, Kreonning davlat qonunini qat'iy bajarishi orqali qarama-qarshilantirilgan. Evripidning Medea asari ham shunday stilistik figuralarga boy bo'lib, bir-biriga zid bo'lgan tushunchalar o'zaro yonma-yon qarshilantiriladi². Keyinchalik ushbu ishlar F.S. Fitsjeraldning "Buyuk Getsbi"sida, U.Shekspirning "Gamlet" asarida, H.Haynening "Germaniya. Qish ertagi" asarlarida keng qo'llanilish orqali davom ettirilidi va tadqiqot obyekti bo'lib xizmat qilgan³.

Stilistik figuralarga oid adabiyotlar va izlanishlar tahlili shuni tasdiqladiki, kontrastni ifodalovchi figuralar va xodisalarni tushunish, tasniflash va taqqoslashga oid bir qator ilmiy izlanishlar olib borilgan. Shu o'rinda, V.V.Vinogradov, Y.G. Kashitsina, I.R.Galperin, V.I. Stepanova, Y.S. Koryukinalarning ilmiy tadqiqotlarini namuna qilib keltirib o'tishimiz mumkin. Ushbu izlanishlarga qo'shimcha tarzda ushbu figuralarning ko'plab vazifalari va shakllanish qonuniyatlari ham mavjud.

Xususan, qarama-qarshilik ifodalovchi antiteza hodisasi haqida I.R.Galperin o'z asarlarida: "Antiteza - stilistika va mantiq orasida paydo bo'luvchi, ularga tutash hodisadir"⁴ deb izohlaydi. Yana bir tilshunos olim Sh.Balli antitezaga quyidagicha ta'rif beradi: Nutqning metodik vositalariga xos tabiiy yo'nalishlarni aniq ifodalash va ularni badiiy bezashning yorqin vositasi bu - antitezadir"⁵. Antik davr yorqin namoyondalaridan bo'lgan faylasuf va olim Arastu⁶ antitezaning inson nutqini

¹ Sophocles. Antigone. Prestwick House Inc; 2005. Sophocles. Antigone. Prestwick House Inc; 2005.

² Segal C. Euripides' "Medea": Vengeance, Reversal and Closure. Pallas. 1996 Jan 1:15-44.

³ Heine H. Germany, a Winter Tale. Mondial; 2007. Fitzgerald FS. The Great Gatsby (1925). na; 1991. Cantor, Paul A. Shakespeare: Hamlet. Cambridge University Press, 2004.

⁴ Гальперин ИР. Стилистика английского языка. М.: Высшая школа. 1981;334:4.

⁵ Bally C. La crise du français: notre langue maternelle à l'école. Librairie Droz; 2004.

⁶ Preminger, Alex; Brogan, T.V.F. (1993). Antithesis. Princeton University Press.

auditoriyaga ikki xil qarama-qarshi holat ifodalovchi vaziyatlarni yanada aniq tushuntirishda soʻzlovchiga yordam berishini taʼkidlab oʻtgan va bundan hulosa qilish mumkinki, qarama-qarshilik ifodalovchi stilistik figuralar qadimdan faol ishlatib kelingan. Sitseron oʻzining “*De Oratore*” deb nomlangan asarida, kontrastni ifodalovchi figuralarga izoh berar ekan, ularni goʻyoki nutqdagi yoʻl koʻrsatuvchi yoritgichlarga oʻxshatib, yoʻl koʻrsatuvchi belgilar deb ataydi va tinglovchi onggiga kuchli taʼsir oʻtkazishini taʼkidlaydi⁷.

Sitseron oʻzining yana bir asari “*In Verrem*” (*Verresga qarshi nutqlar*)⁸ da jamiyatdagi voqelikni taqqoslab, qashshoq va bechora Sitsiliya aholisini oʻsha davrdagi boylik va hukumatga ruju qoʻygan hokim - Verresning hatti-harakatlariga qarama-qarshi qoʻyadi: *qirgʻoqdagi hashamat - dengizdagi ochlik; mastona erkak - och qolgan jamoa*. Asarlar tahlilida kuzatilgan ushbu vaziyatlar asosan ijtimoiy zid masalalarni taqqoslash orqali oʻquvchi va tinglovchi onggiga taʼsir oʻtkazish va turli zamonlarda sodir boʻlgan voqelikni yetkazib berishga xizmat qiladi.

Tadqiqotda qarama-qarshilik ifodalovchi figuralardan antiteza, xiazm hodisalari obyekt sifatida, avvalo, shakllanish jihatidan oʻrganishni taqozo qiladi. Shu bilan bir qatorda, ushbu figuralarning sintaktik, morfologik, leksik va fonetik sathlarda namoyon boʻlishi, ularning oʻzaro va boshqa figuralar bilan oʻxshashligini tahlil qilishni talab qiladi. Qadimdan tilshunoslikning turli sohalarida qarama-qarshilik ifodalovchi turli figuralardan mohirona foydalanib kelingan. Lekin, ushbu figuralarning barchasi ham stilistik figura rolda namoyon boʻla olmaydi va ular shunchaki leksik jihatdan boy va baʼzida gap tarkibida turli vazifalarni bajara oladigan, turli soʻz turkumlarida gavdalanirish mumkin boʻlgan soʻz birliklari sifatidagina qarash mumkin. Misol uchun, tilshunoslikda mavjud boʻlgan *kontronimlar* tushunchasi orqali ham bir-biriga zid boʻlgan hodisalar izohlanadi. Ushbu tushuncha bir soʻzning qarama-qarshi maʼnolarda kelishi orqali ifodalanib, stilistik figura sifatida antiteza va xiazm hodisalariga tenglashtirish notoʻgʻri hisoblanadi.

O.N.Yegorchenko ushbu holatni oʻz dissertatsiyasida kontrastni ifodalovchi figuralarning asosan bir prinsip ostida lekin turli xil yondashuvlar bilan yuzaga kelishi orqali ifodalaydi⁹. Muallifning fikricha, ushbu figuralar mustaqil hisoblanadi va ular orasidagi u yoki bu oʻxshashlik ularning aynan bir lingvistik maydonda kesishuv orqali yuzaga kelishi natijasida paydo boʻladi. Ushbu jarayonda antiteza va oksimoron kabi figuralarning kesishuvi figuralarning aniq vazifasi, tuzilishi, shakllanish qonuniyatlarni aniqlashda murakkablik keltirib chiqaradi.

Z.Bekmurodovanning ilmiy izlanishlari tahlili shuni koʻrsatadiki, ushbu figuralar antik davrlarda diniy matnlarda faol qoʻllanilib kelingan va XIX asr boshlariga

⁷ Cicero MT. Cicero de oratore. 1868.

⁸ Cicero MT. MT CICERONIS in Gaium Verrem Actio Prima. CUP Archive; 1927.

⁹ Егорченко, О. Н. Стилистические фигуры контраста в современном русском литературном языке: семантико-структурно-функциональная характеристика. 2006.

kelibgina lingvistikada keng hajmda qo'llanila boshlangan¹⁰. Xususan xiazm hodisasining turli manbalarga asosan paydo bo'lish davrlari turlicha ko'rsatiladi. Uning miloddan avvalgi uchinchi ming yillikda Yaqin Sharq adabiyoti namunalari Ugarit tili yodgorliklarida va shumer-akkad xalqlari (hozirgi Iroqning janubiy qismi) tomonidan foydalanilganligi haqida ma'lumotlar mavjud. Antiteza figurasi esa miloddan avvalgi IV asrga borib taqaladi va qadimgi grek faylasuflari va ritorika san'ati namoyondalari tomonidan keng qo'llanilgan. Ingliz adabiyotiga bu terminning kirib kelishi 1520-yillarga to'g'ri keladi.

Z.Bekmurodova yana xiazm figurasining uzoq vaqt davomida lingvistik figura sifatida emas, balki ensiklopediyalar, termin lug'atlarida va bir qator turli nashrlar uchun material sifatida ishlatilganligini, 1990-yillardan boshlabgina ilmiy jihatdan keng tadqiq qilina boshlanganligini alohida ko'rsatib o'tgan. O'z fikrlariga asos sifatida muallif, X.Xorveyning ushbu figura haqida tayyorlangan ikki qismli monografiyasini keltiradi.

Ushbu figuraning yaqin tarixiga nazar soladigan bo'lsak M.Dubremetz va J.Nivre olib borgan izlanishlar xiazm figurasining nafaqat lingvistik balki matematik jihatlarini ham yorqin misolda ochib berilganligini ko'rishimiz mumkin¹¹. Mualliflar xiazmni ritorik vosita sifatida qabul qilib, unga matematik yondashuvni va ushbu figurani tushunish uchun fazoviy uch o'lchamli modellarni taklif qiladilar. Shunga o'xshash tadqiqot o'zbek tilshunoslaridan O.X.Mamaziyayev tomonidan chuqurroq o'rganilgan bo'lib, kontrastni ifodalovchi stilistik figura sifatida xiazm hodisasini aynan matematik modellashtirish yordamida keng ochib bergan¹².

Shu o'rinda alohida ta'kidlash joizki, qarama-qarshilik ifodalovchi figuralarning tarixiy shakllanishi faqatgina g'arbiy ritorika an'analari bilan cheklanmaydi. Antik davrdan keyingi bosqichlarda diniy, falsafiy va didaktik matnlar tarkibida kontrast ifodalash usullari yanada barqarorlashib, matn tuzilishining ichki tamoyiliga aylangan. Ayniqsa, sharq mumtoz tafakkurida yaxshilik va yomonlik, sabr va shoshqaloqlik, zohir va botin, ishq va hijron kabi qarama-qarshi semantik qutblar orqali fikrni teranlashtirish usuli kuchaygan. Bu jarayonda kontrast oddiy bezak vositasi emas, balki muallifning dunyoqarashi va baholash pozitsiyasini ifodalovchi stilistik mexanizm sifatida shakllanadi. Shuning uchun tarixiy manbalarni tahlil qilishda figuralarning tashqi ko'rinishi bilan bir qatorda, ular xizmat qilgan g'oyaviy vazifani ham hisobga olish zarur bo'ladi.

O'rta asrlar va Uyg'onish davriga kelib ritorika ilmi tizimlashgani sari antiteza va xiazm kabi figuralarning qo'llanish doirasi ham kengaydi. Bu bosqichda ular notiqlik san'ati, diniy va'z, siyosiy nutq hamda badiiy ijodning asosiy usullaridan biri sifatida

¹⁰ Bekmuradova, Z. Tilshunoslikda xiazm [Matn]: uslubiy qo'llanma. Toshkent: Matbaachi, 2025. – 124 b

¹¹ Dubremetz M, Nivre J. Rhetorical figure detection: The case of chiasmus. In Proceedings of the fourth workshop on computational linguistics for literature 2015 Jun (pp. 23-31).

¹² Мамазияев, О. Х. "Ўзбек поэтик нутқида хиазм ва градация." НДА. Фарғона/Ўзбекистон (2004): 1-140.

mustahkam o‘rin egalladi. Agar antiteza ko‘proq qarama-qarshi tushunchalarni ochiq taqqoslash orqali mazmunni ravshanlashtirsa, xiazm esa birliklarning o‘zaro teskari tartibda joylashishi bilan o‘quvchi diqqatini shakl va ma‘no birligiga qaratadi. Demak, tarixiy taraqqiyot jarayonida kontrast ifodalovchi figuralar faqat semantik qarama-qarshilikni emas, balki sintaktik qurilishning estetik imkoniyatlarini ham o‘zlashtirib borgan. Shu sababli ularning evolyutsiyasini izohlashda “mazmuniy kontrast” va “konstruktiv kontrast” tushunchalarini birgalikda qo‘llash maqsadga muvofiqdir.

Turkiy yozma yodgorliklar va keyingi o‘zbek mumtoz adabiyoti materiallari ham qarama-qarshilik ifodalovchi figuralarning uzoq tarixiy ildizlarga ega ekanini ko‘rsatadi. Xususan, hikmat, pand-nasihat va tasavvufiy ruhdagi matnlarda ma‘no qarama-qarshiligi orqali axloqiy xulosa chiqarish an‘anasi juda faol bo‘lgan. Alisher Navoiy, Bobur, Mashrab, Ogahiy kabi ijodkorlar asarlarida hayot va foniylilik, visol va firoq, aql va ishq, shoh va gado kabi semantik oppozitsiyalar fikrni badiiy kuch bilan berishga xizmat qilgan. Bunday misollarda antiteza ko‘pincha mazmuniy markaz vazifasini bajaradi, xiazm esa matnning ichki ritmini, ta’sirchanligini va esda qolarli shaklini kuchaytiradi. Shu jihatdan qaraganda, xiazm va antiteza o‘zbek badiiy tafakkurida ham chetdan kirib kelgan hodisa sifatida emas, balki umumiy poetik tafakkur qonuniyatlari bilan uyg‘unlashgan vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

Shuningdek, mazkur figuralarning yuzaga kelish jarayonini izohlashda ularning til sathlaridagi ko‘rinishini farqlash muhim ahamiyatga ega. Leksik sathda antiteza ko‘pincha antonimik birliklar yordamida yuzaga chiqadi, biroq har qanday antonim juftlik stilistik figura hosil qilavermaydi. Stilistiklik darajasi, avvalo, muallifning niyatiga, kontekstning yuklamasiga va qarama-qarshilikning matn ichida qanday pozitsiyada qo‘llanganiga bog‘liq bo‘ladi. Morfologik sathda inkor va tasdiq shakllarining parallel yoki teskari qo‘llanishi kontrastni kuchaytirsa, sintaktik sathda parallelizm, inversiya va takror kabi vositalar xiazmning shakllanishiga xizmat qiladi. Fonetik sathda esa ohang, urg‘u va ritmik bo‘linish qarama-qarshi birliklarning qabul qilinishini kuchaytirib, ularni tinglovchi yoki o‘quvchi ongida yanada aniqroq ajratib beradi.

Antiteza va xiazmni o‘zaro qiyoslashda ularning umumiy va farqli jihatlarini tarixiy manbalar asosida ajratish zarur. Umumiylik shundaki, har ikkisi ham qarama-qarshilik va nisbat tamoyiliga tayangan holda matnda kuchli ekspressivlikni yuzaga keltiradi. Biroq antitezada asosiy og‘irlik semantik oppozitsiyaga tushsa, xiazmda semantik qarama-qarshilik bilan birga konstruktiv teskari joylashuv ham hal qiluvchi omil bo‘ladi. Shartli ravishda aytganda, antiteza ko‘proq qarama-qarshi mazmunni oldinga chiqarsa, xiazm qarama-qarshi mazmunning qanday tashkil etilganini ham ko‘rsatadi. Shu bois xiazmni faqat antitezaning bir ko‘rinishi sifatida talqin qilish yetarli emas; u ko‘pincha mustaqil struktur-semantik model sifatida ish ko‘radi va ayrim matnlarda antitezasiz ham yuzaga chiqishi mumkin.

Tarixiy taraqqiyot nuqtai nazaridan qaralganda, kontrast ifodalovchi figuralarning ilmiy talqini bir necha bosqichdan o'tganini kuzatish mumkin: dastlabki bosqichda ular notiqlik amaliyotining tabiiy vositasi sifatida qo'llangan; keyingi bosqichda poetika va ritorika doirasida nomlangan va tavsiflangan; undan keyin stilistika hamda tilshunoslikda mustaqil tadqiqot obyektiga aylangan; nihoyat, zamonaviy bosqichda korpus tahlili, statistik usullar va modellashtirish orqali tekshiriladigan hodisaga aylangan. Aynan shu bosqichma-bosqich rivojlanish xiazmnining matematik modellashtirish bilan bog'liq tadqiqotlarini ham izohlaydi. Chunki xiazmnining teskari simmetriyaga asoslangan qurilishi uni formal tahlil uchun qulay obyektga aylantiradi. Shu bilan birga, formal model matnning badiiy va pragmatik ma'nosini to'liq almashtira olmaydi, balki lingvistik tahlilni aniqlashtiruvchi qo'shimcha vosita sifatida xizmat qiladi.

Mazkur tarixiy ko'rinishlar bugungi o'zbek tilshunosligi uchun ham muhim metodologik xulosa beradi. Birinchidan, antiteza va xiazmni o'rganishda faqat badiiy matnlar emas, balki publitsistik, siyosiy, diniy va akademik diskurs namunalari ham qamrab olinishi maqsadga muvofiq. Chunki kontrast ifodalash vositalari turli uslublarda turlicha funksional yuklama bilan ishlaydi. Ikkinchidan, figuralarni tavsiflashda an'anaviy stilistik tahlil bilan birga sintaktik sxemalash, semantik maydon tahlili va pragmatik izohni birlashtirish zarur. Uchinchidan, o'zbek tilidagi materiallarni tarixiy va zamonaviy qatlamlar bo'yicha qiyosiy o'rganish orqali kontrast ifodalovchi figuralarning milliy uslubiy xususiyatlarini aniqlash mumkin bo'ladi. Bu esa kelgusida stilistika, matnshunoslik va diskurs tahliliga oid izlanishlar uchun mustahkam nazariy asos yaratadi.

Shu bilan birga, qarama-qarshilik ifodalovchi figuralarning tarixiy rivojida madaniy omil ham muhim rol o'ynaydi. Har bir davr va madaniyat o'zining asosiy ijtimoiy ziddiyatlari, axloqiy mezonlari va estetik idealiga qarab kontrastning faol turlarini shakllantiradi. Masalan, antik matnlarda davlat va fuqaro, qonun va burch kabi oppozitsiyalar yetakchi bo'lsa, mumtoz sharq adabiyotida ruhiy-axloqiy hamda tasavvufiy oppozitsiyalar ustunlik qiladi; zamonaviy matnlarda esa shaxs va jamiyat, an'ana va modernlik, markaz va periferiyaning qarama-qarshiligi kuchayadi. Demak, antiteza va xiazmnining shakllanish tarixini o'rganish bir vaqtning o'zida madaniy tafakkur tarixini o'rganish bilan ham uzviy bog'liqdir. Shu sababli ushbu figuralarni talqin qilishda sof formal yondashuv emas, balki tarixiy-madaniy kontekstni hisobga oluvchi kompleks yondashuv eng samarali natija beradi.

Yuqorida keltirilgan mulohazalar asosida aytish mumkinki, qarama-qarshilik ifodalovchi stilistik figuralar yuzaga kelish jarayoni bir yo'nalishli emas, balki ko'p qatlamli tarixiy hodisadir. Unda antik ritorika tajribasi, diniy-didaktik nutq an'analari, sharq va g'arb poetik tafakkuri, hamda zamonaviy lingvistik metodlarning bir-biriga tutashuvi kuzatiladi. Aynan mana shu ko'p qatlamlilik sababli antiteza va xiazmni

birgina mezon asosida izohlash yetarli bo'lmaydi; ularni semantik, sintaktik, pragmatik va madaniy jihatlar birligida tahlil qilish zarur. Tadqiqotning keyingi bosqichlarida ushbu figuralarning o'zbek tilidagi real matnlar korpusida uchrash chastotasi, struktur modellari va funksional yuklamasini aniqlash tarixiy nazariy xulosalarni amaliy material bilan mustahkamlash imkonini beradi. Bu esa qarama-qarshilik ifodalovchi figuralar bo'yicha milliy stilistik tadqiqotlarni yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, qarama-qarshilik ifodalovchi stilistik figuralar, xususan antiteza va xiazm, uzoq tarixiy taraqqiyot mahsuli bo'lib, ular antik ritorika, diniy-didaktik matnlar, sharq va g'arb adabiy an'analari, hamda zamonaviy lingvistik yondashuvlar kesishuvida shakllangan. Ularning yuzaga kelish jarayonini tarixiy aspektda ko'rib chiqish figuralarning faqat tashqi shaklini emas, balki semantik yadrosi, sintaktik qurilishi va pragmatik vazifasini ham chuqurroq anglash imkonini beradi. Shuningdek, mazkur tarixiy nazar antiteza va xiazmni boshqa kontrast hodisalardan, jumladan oksimoron va kontronimlardan aniqroq farqlashda nazariy mezonlar beradi. Natijada, ushbu figuralarning til tizimi va nutq amaliyotidagi o'rni yanada ravshanlashadi, bu esa stilistika, matnshunoslik va lingvopoetik tadqiqotlar uchun muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sophocles. Antigone. Prestwick House Inc; 2005. Sophocles. Antigone. Prestwick House Inc; 2005.
2. Segal C. Euripides'" Medea": Vengeance, Reversal and Closure. Pallas. 1996 Jan 1:15-44.
3. Heine H. Germany, a Winter Tale. Mondial; 2007. Fitzgerald FS. The Great Gatsby (1925). na; 1991. Cantor, Paul A. Shakespeare: Hamlet. Cambridge University Press, 2004.
4. Гальперин ИР. Стилистика английского языка. М.: Высшая школа. 1981;334:4.
5. Bally C. La crise du français: notre langue maternelle à l'école. Librairie Droz; 2004.
6. Preminger, Alex; Brogan, T.V.F. (1993). Antithesis. Princeton University Press.
7. Cicero MT. Cicero de oratore. 1868.
8. Cicero MT. MT CICERONIS in Gaium Verrem Actio Prima. CUP Archive; 1927.
9. Егорченко, О. Н. Стилистические фигуры контраста в современном русском литературном языке: семантико-структурно-функциональная характеристика. 2006.

10. Bekmuradova, Z. Tilshunoslikda xiazm [Matn]: uslubiy qo‘llanma. Toshkent: Matbaachi, 2025. - 124 b
11. Dubremetz M, Nivre J. Rhetorical figure detection: The case of chiasmus. In Proceedings of the fourth workshop on computational linguistics for literature 2015 Jun (pp. 23-31).
12. Мамазияев, О. Х. "Ўзбек поэтик нутқида хиазм ва градация." НДА. Фарғона/Ўзбекистон (2004): 1-140.